



THE LIFE AND ACADEMIC CONTRIBUTIONS OF NURIDDIN ITR

Jurakulov Sunnatulloh

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

1st master's degree student of Islamic studies

+998997581914

alnavaiyuz@gmail.com

Turayev Numonjon Nasibjonovich

Academic Advisor: International Islamic Studies Academy of

Uzbekistan Associate Professor of the Department of "Islamic Studies

and Study of Islamic Civilization ICESCO," PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20307345>

ARTICLE INFO

Received: 14th May 2026

Accepted: 19th May 2026

Online: 20th May 2026

KEYWORDS

Nur al-Din 'Itr, hadith science, muhaddith, Al-Azhar, Damascus University, Manhaj al-naqd, scientific activity, mustalah al-hadith, tahqiq.

ABSTRACT

This article analyzes the life, educational stages, and extensive scientific and pedagogical activities of Dr. Nur al-Din 'Itr, one of the leading hadith scholars of the Islamic world in the 20th and early 21st centuries. It highlights his early education in Aleppo (Syria), his studies at Al-Azhar University, as well as his contribution to the development of hadith science in a number of international educational institutions such as Medina and Damascus. In addition, the article reveals the significance of the scholar's more than 50 scientific works, particularly his research (tahqiq) on ancient texts, the unprecedented role of his masterpiece "Manhaj al-naqd fi 'ulum al-hadith" in the development of modern hadith studies, and his academic school in training young specialists.

ЖИЗНЬ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НУРИДДИНА ИТРА

Журакулов Суннатуллох

Международная академия исламоведения Узбекистана

исламоведения, магистрант 1-курса

+998997581914. alnavaiyuz@gmail.com

Тураев Нуманжон Насибжонович

Научный руководитель: Международная академия исламоведения Узбекистана

Доцент кафедры "Исламоведение и изучение исламской цивилизации ICESCO",

PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20307345>

ARTICLE INFO

Received: 14th May 2026

Accepted: 19th May 2026

Online: 20th May 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

В данной статье анализируются жизнь, этапы обучения и обширная научно-педагогическая деятельность доктора Нуриддина Итра, одного из



Нуриддин Итвр, наука о хадисах, мухаддис, Аль-Азхар, Дамасский университет, Манхадж ан-накд, научная деятельность, мусталах ал-хадис, тахкик.

выдающихся ученых-мухаддисов исламского мира XX и начала XXI веков. Освещается его начальное образование в городе Алеппо (Сирия), учеба в университете Аль-Азхар, а также его вклад в развитие науки о хадисах в ряде международных образовательных учреждений Медина и Дамаска. Кроме того, в статье раскрывается значение более 50 научных трудов ученого, в частности, его исследовательская работа (тахкик) над древними текстами и беспрецедентная роль его главного шедевра «Манхадж ан-накд фи улум ал-хадис» в развитии современного хадисоведения, а также его научная школа в подготовке молодых специалистов.

NURIDDIN ITRNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Jurakulov Sunnatulloh

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 1-kurs magistranti

+998997581914, alnavaiyuz@gmail.com

To'rayev No'monjon Nasibjonovich

Ilmiy rahbar: O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO” kafedrasi dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20307345>

ARTICLE INFO

Received: 14th May 2026

Accepted: 19th May 2026

Online: 20th May 2026

KEYWORDS

Nuriddin Itr, hadis ilmi, muhaddis, Azhar, Damashq universiteti, Manhaj an-naqd, ilmiy faoliyat, mustalah al-hadis, tahqiq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada XX asr va XXI asr boshlaridagi islom olamining yetuk muhaddis olimlaridan biri, doktor Nuriddin Itrning hayoti, ta'lim olish bosqichlari va sershumul ilmiy-pedagogik faoliyati tahlil qilingan. Olimning Halab (Suriya) shahridagi dastlabki ta'limi, Al-Azhar universitetidagi tahsili, shuningdek, Madina, Damashq kabi qator xalqaro ta'lim muassasalarida hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, maqolada allomaning 50 dan ortiq ilmiy asarlari, xususan, qadimiy matnlar ustida olib borgan tahqiq ishlari hamda uning shoh asari bo'lmish “Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis” kitobining zamonaviy hadisshunoslik fani taraqqiyotidagi beqiyos o'рни va yosh mutaxassislarni tayyorlashdagi ilmiy maktabi ochib berilgan.

KIRISH

XX asr va XXI asr boshlarida hadis ilmi metodologiyasiga yangicha yondashuv olib kirgan yirik olimlardan biri – doktor Nuriddin Itrdir.

Uning hayoti va dastlabki ta'lim bosqichlari oddiygina tarixiy voqealar ketma-ketligi emas, balki an'anaviy islom ilmlari bilan zamonaviy ilmiy tizim



qanday birlashganini ko'rsatadigan muhim misoldir.

Tadqiqotchi Ana Istiana va uning hammualliflari tomonidan Nuriddin Itrning ilk davri haqida shunday yoziladi:

“Nuriddin ‘Itr memiliki nama lengkap Nur al-Dīn Muhammad Hasan ‘Itr, yang lahir di daerah Halab (sebuah wilayah yang terletak di daerah Syam yang sekarang dikenal dengan Siria) pada tahun 1937 M/ 1256 H, yang mana beliau sejak kecil sudah sering menghadiri majelis majelis pengajian ara ulama bersama ayahnya”, ya’ni “Nuriddin Itrning to’liq ismi Nuruddin Muhammad Hasan Itr bo’lib, u 1937 yilda (hijriy 1356 yil) Shom mintaqasida joylashgan Halab shahrida (hozirgi Suriya) dunyoga kelgan. U yoshligidanoq otasi bilan birgalikda ulamolarning ilm majlislarida tez-tez ishtirok etib kelgan”¹.

XX asrning 30 - 40-yillarida Suriya va umuman Yaqin Sharq hududi katta ijtimoiy hamda siyosiy o’zgarishlarni boshdan kechirayotgan edi. Bu davrda g’arb madaniyati va dunyoviy qarashlarning ta’siri kuchayib borgan. Ana shunday murakkab muhitda Nuriddin Itrning yoshligidan otasi bilan ulamolar majlislarida qatnashib ulg’aygani uning ilmiy va ruhiy shakllanishida muhim omil bo’ldi.

Shunday murakkab sharoitda islom ilmlarini saqlab qolish faqatgina rasmiy

madrasalar orqali emas, balki ko’proq ulamolarning kichik yig’inlari - majlislar orqali amalga oshirilgan.

Nuriddin Itrning yoshligidan ana shu muhitda qatnashib ulg’ayishi unga hadis ilmini shunchaki yozma matn sifatida emas, balki ustozdan shogirdga o’tib kelayotgan tirik ilm, ya’ni uzluksiz ilmiy va ruhiy bog’lanish sifatida tushunishni o’rgatdi.

Bu tajriba keyinchalik uning hadislarni o’rganishda faqat mantiqiy tahlil bilan cheklanib qolmasdan, balki ulamolarning tajribasi va ruhiy yondashuviga ham tayanishiga sabab bo’ldi.

ASOSIY QISM

Olimning tug’ilishi va unga ism berilishi bilan bog’liq ijtimoiy-ruhiy vaziyat haqida doktor Roviya Nuriddin Itr o’zining turk tilli nashrlarda e’lon qilingan maqolasida shunday ma’lumot beradi: “*فبعد وفاة طفلتين ثالثة، رزق اهلل تعالى الوالد النور ... سماء جده الشيخ نجيب سراج الدين (نور الدين)*” (Tarjimasi: “Uch nafar qiz farzandning go’dakligidayoq vafot etishi ortidan Alloh taolo oilaga bir o’g’il ne’matini berdi. Uning bobosi - o’z zamonasining yetuk olimi, Shayx Najib Sirojiddin unga “Nuriddin” (Dinning nuri) deb ism qo’ydi”)².

Ma’lumki, sharqda bolalaridan ayrilgandan keyin tug’ilib, tirik qolgan to’ng’ich o’g’il farzandga alohida e’

¹ Istiana, Ana., Sholihah, Ulfatus., Luthfianto, Muhammad. *Kajian Tokoh Hadis: Nuruddin ‘Itr // Mahabbah: Jurnal Ilmu Ushuluddin Dan Pemikiran Islam*. - Bangkalan: Sekolah Tinggi Ilmu Ushuluddin Darussalam, 2025. - № 1(2). - B. 2.

² Itir, Râviye Nureddin. *Bilâdüşşâm’ın Muhaddisi Prof. Dr. Nureddin Itir // مجلة كلية العلوم الإسلامية في جامعة السلطان محمد الفاتح الوقفية (FSM İlmî Araştırmalar İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi)*. - İstanbul: Fatih Sultan Mehmet Vakıf Üniversitesi, 2021. - № 4. - B. 19.



tibor bilan qaralgan. Bunday farzand Allohning omonati va oilaning kelajagi uchun katta mas'uliyat yuklangan shaxs sifatida qabul qilingan. Shu sababli bu kabi oilaviy va shaxsiy omillar olim shaxsiyatining shakllanishida muhim ta'sir ko'rsatgan omil sifatida qaraladi.

Nuriddinning bobosi - Halabdagi mashhur olim Shayx Najib Sirojiddin unga "Nuriddin" deb ism qo'ygan. Bu shunchaki ism qo'yish emas, balki unga ma'naviy ma'no yuklash, ya'ni "dinga nur bo'lsin" degan umidni bildirgan.

Shu ism va oilaning katta umidlari yosh Nuriddin zimmasiga muhim vazifa yuklagan: dinni himoya qilish va uni ilmiy asosda tushuntirish.

Keyinchalik uning asarlarida hadislarni tanqid qilgan sharqshunoslar va zamonaviy oqimlarga qarshi qat'iy, lekin ilmiy asosda javob berishi ham aynan shu bolaligidan shakllangan mas'uliyat hissi bilan bog'liq. Ya'ni u o'zini ilm yo'liga bag'ishlangan inson deb his qilgan.

Dastlabki va o'rta maxsus ta'lim bosqichining tizimliliği haqida turk tadqiqotchisi Alaaddin Kiraz quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Nureddin 'Itr attended the Sharia High School and graduated with honours in 1954, earning the Sharia High School Certificate" (Tarjimasi: "Nuriddin Itr shariat o'rta maktabiga (madrasasiga) o'qishga kirdi va 1954 yilda uni imtiyozli baholar

bilan tamomlab, shariat o'rta ta'limi shahodatnomasini qo'lga kiritdi")³.

Bundan ko'rish mumkin-ki, 1950-yillarda Yaqin Sharqda diniy ta'lim muassasalariga nisbatan jamiyatda ishonchning ma'lum darajada pasayishi kuzatilgan edi. Ana shunday murakkab sharoitda Nuriddin Itrning "Xusraviyya" kabi nufuzli shariat maktablarida tahsil olib, yuqori natijalarga erishgani uning ilmga bo'lgan kuchli intilishi va yuksak salohiyatini ko'rsatadi. Mazkur ta'lim maskanlari unda mustahkam ilmiy asos, tartibli fikrlash va hadis ilmlariga xos chuqur tahliliy yondashuv shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Jamiyatda diniy ta'limni chetga surish holati ham kuzatilgan. Ko'pchilik ziyolilar aniq fanlar va ijtimoiy fanlarga ko'proq e'tibor berayotgan payt edi. Shunday sharoitda Nuriddin Itrning shariat maktabini tanlashi, uni muvaffaqiyatli tugatishi va hatto tengdoshlari orasida eng yuqori baholar bilan oldinda bo'lishi uning kuchli irodasi va zakovatini ko'rsatadi. "Xusraviyya" madrasasida ta'lim faqat matnlarni yodlash bilan cheklanmagan. U yerda mantiq, balog'at (chiroyli va ta'sirli nutq ilmi) va usul (ilmiy yondashuv usullari) kabi fanlar ham chuqur o'rgatilgan. Shu sababli Nuriddin Itrda ma'lumotlarni chuqur o'ylab, tahlil qilib va tartibga solib ishlash qobiliyati shakllangan.

³ Kiraz, Alaaddin. Nureddin 'Itr ve "Menhecü'n-Nağd fî 'Ulûmî'l-Ĥadîs" Adlı Eseri Üzerine Bir Değerlendirme // Gifad: Gümüşhane

Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. – Gümüşhane: Gümüşhane Üniversitesi, 2023. – № 12(23). – B. 314.



Keyinchalik uning hadis ilmini 6 ta katta guruhga ajratib, tartibga solishi ham tasodifiy emas. Bu bevosita “Xusraviyya” da olgan puxta va tartibli ta’limining natijasidir.

Halabdagi “Xusraviyya” shariat maktabida chuqur va tartibli ta’lim olib, uni eng yuqori natijalar bilan tugatgan yosh Nuriddinning ilmiy salohiyati va fikrlash doirasi endi faqat mahalliy ta’lim bilan cheklanib qolmasligi kerak edi. Shu sababli uning keyingi hayoti va ta’lim bosqichi butun islom olamidagi eng yirik ilm markazlaridan biri bo’lgan Misrdagi Azhar universiteti bilan bog’landi. Bu davr olimning bilim olish va tushunish qobiliyatlari to’liq shakllangan, ya’ni u haqiqiy ilmiy darajaga ko’tarilgan muhim bosqich hisoblanadi.

Turk tadqiqotchisi Alaaddin Kiraz olimning o’qishni Misrda davom ettirishi haqida shunday qayd etadi: *“He then enrolled in Al-Azhar University in Egypt, where he graduated first in his class with a bachelor's degree in 1958, benefiting from his sheikhs, including Sheikh Mustafa Mujahid, Sheikh Muhammad Al-Samahi, and Sheikh Muhammad Muhyiddin ‘Abd al-Ḥāmid”*, ya’ni “So’ngra u Misrdagi Al-Azhar universitetiga o’qishga kirdi va u yerni 1958-yilda o’z tengdoshlari orasida birinchi o’rinda bakalavr darajasi bilan tamomladi. U yerda Shayx Mustafo Mujohid, Shayx Muhammad as-Samohiy va Shayx Muhammad Muhyiddin

Abdulhamid kabi ustozlaridan ta’lim oldi va ulardan bahramand bo’ldi”⁴. Shuningdek, arab manbalarida uning ustozlari qatorida Shayx Abdulvahhob Abdullatif va Shayx Muhammad Abu Shahba (qur’onshunoslik bo’yicha) kabi yirik mutafakkirlar ham bo’lgani ta’kidlanadi.

XX asrning o’rtalarida Suriyadagi ta’lim tizimi asosan an’anaviy va ma’naviy tarbiyaga tayangan bo’lsa, Misrdagi Azhar esa qadimiy ilmiy an’analarni saqlab qolgan holda, taqqoslash, tahlil qilish va tanqidiy fikrlashga asoslangan kuchli ilmiy markaz hisoblangan. Nuriddin Itrning Azharda tahsil olishi oddiy joy almashish emas, balki uning ilmiy qarashlari yanada kengayishiga sabab bo’lgan muhim bosqich edi. U yerda turli islomiy fanlar bo’yicha yetuk olimlardan dars olishi natijasida unda birgina mazhab yoki hudud qarashlari bilan cheklanib qolmaslik, masalalarga kengroq va xolisroq yondashish qobiliyati shakllandi.

Uning Azharni ham “birinchi o’rinda” bitirishi esa, undagi faktlarni analitik tahlil qilish va axborotlarni tizimlashtirish iqtidori olimlar nazdida oddiy talaba darajasidan ancha yuqori bo’lganini isbotlaydi.

Olimning oliy ta’limdan keyingi ilmiy izlanishlari haqida doktor Muhammad Mujir al-Xatib shunday yozadi: *“إلى أن نال شهادة العالمية (الدكتوراه) بتقدير (ممتاز) سنة (١٩٦٤م)، وكان من شيوخه في مصر كبار علمائها، ومنهم: الشيخ محمد محيي الدين عبد الحميد، المشرف الأول على أطروحاته. والشيخ د.*

⁴ Kiraz, Alaaddin. Nureddin ‘Itr ve “Menhecü’n-Nağd fî ‘Ulūmî’l-Ḥadîs” Adli Eseri Üzerine Bir Değerlendirme // Gifad: Gümüşhane

Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. – Gümüşhane: Gümüşhane Üniversitesi, 2023. – № 12(23). – B. 314-315.



”محمد محمد السماحي، المشرف الثاني على أطروحتة“
5 ya’ ni, “U 1964-yilda Al-Azharda eng yuqori “Mumtoz” bahosi bilan doktorlik - PhD darajasini qo’lga kiritdi. Misrda uning ustozlari qatorida kishvarning eng yirik ulamolari bor edi, jumladan: uning dissertatsiyasiga birinchi ilmiy rahbar bo’lgan Shayx Muhammad Muhyiddin Abdulhamid hamda ikkinchi ilmiy rahbar bo’lgan Shayx doktor Muhammad as-Samohiyar bo’lib, olim ulardan ulkan manfaatlarni oldi”. Dissertatsiya mavzusi esa “Imom Termiziy va uning Jome’ asari hamda ikki Sahih (Buxoriy va Muslim) o’rtasidagi muvozanat” deb nomlangan edi.

Nuriddin Itrning doktorlik tadqiqotida Imom Termiziyning “Sunan” asarini Imom Buxoriy va Imom Muslimning “Sahih” lari bilan qiyosiy tarzda o’rganishi ortida chuqur ilmiy maqsad yotgan edi. Hadis ilmida Imom Buxoriy va Imom Muslimning asarlari eng ishonchli va eng sahih hadislar jamlangan manbalar sifatida e’tirof etiladi. Imom Termiziyning “Sunan” asari esa hadislarining yashirin nuqsonlari, roviylarning ishonchlilik darajasi hamda turli mazhablar o’rtasidagi fikr farqlarini amaliy misollar orqali ko’rsatib berishi bilan ajralib turadi.

Mazkur qiyosiy tadqiqot orqali Nuriddin Itr hadislarini tanqid qilish

qoidalari qadimgi muhaddislar tomonidan amalda qanday qo’llanganini yoritib berdi. U faqat tarixiy matnlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmay, balki muhaddislarining fikrlash usuli va ilmiy yondashuvini zamonaviy ilmiy uslub asosida tushuntirib berdi.

Aynan shu doktorlik ishi keyinchalik uning mashhur “Hadis ilmlarida tanqid metodologiyasi” (Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis) asarini yozishiga asos bo’ldi.

Nuriddin Itrning intellektual va ruhiy ta’limidagi yana bir muhim omil haqida indoneziyalik tadqiqotchilar jamoasi (Ana Istiana va b.) quyidagicha ma’lumot keltiradi: “*Nur al-Dîn Itr adalah keponakan dari syekh Abdullah Sirajuddin, kemudian dia menikahkan Syekh Nurudin dengan anak perempuannya maka hubungannya semakin kuat dari segi keluarga, disamping menjadi paman beliau juga menjadi mertua dari syekh Nuruddin*”, ya’ni “Nuriddin Itr Shayx Abdulloh Sirojuddin jiyani hisoblanadi. Keyinchalik Shayx o’z qizini Nuriddinga nikohlab berdi, natijada ularning oilaviy va qarindoshlik aloqalari yanada mustahkamlandi. Shunday qilib, Shayx Abdulloh Sirojuddin Nuriddin Itrga ham tog’a, ham qaynota bo’ldi”

6. Boshqa manbalarda ta’kidlanishicha, Shayx Abdulloh Sirojuddin o’z zamonasining eng yirik muhaddisi va qalb tarbiyachisi (orif zot) bo’lib,

5 el-Hatîb, Muhammed Mücîr. د. محمد مجير الخطيب // مجلة كلية العلوم الإسلامية في جامعة السلطان محمد الفاتح الوقفية (Islam Araştırmaları Dergisi). – İstanbul: Fatih Sultan Mehmet Vakıf Üniversitesi, 2021. - № 45. – B. 214.

6 Istiana, Ana., Sholihah, Ulfatus., Luthfianto, Muhammad. Kajian Tokoh Hadis: Nuruddin Itr // Mahabbah: Jurnal Ilmu Ushuluddin Dan Pemikiran Islam. – Bangkalan: Sekolah Tinggi Ilmu Ushuluddin Darussalam, 2025. - № 1(2). – B. 145.



Nuriddin Itrning ma'naviy shakllanishiga eng katta ta'sir ko'rsatgan shaxsdir.

Islom ilmlarida, ayniqsa hadis ilmida ustoz va shogird o'rtasidagi kuchli ruhiy hamda qarindoshlik aloqalariga alohida ahamiyat berilgan. Buning asosiy sabablaridan biri ilmning ishonchli va uzluksiz ravishda avloddan avlodga o'tib kelganidir. Islom tarixida hadis ilmi ustozdan shogirdga aniq va ishonchli tarzda yetkazilgan bo'lib, ayrim hollarda bu ilm yaqin qarindoshlarga ham topshirilgan. Chunki ustoz o'zidagi eng muhim ilmni sadoqatli, ishonchli va iqtidorli shaxsga yetkazishni maqsad qilgan.

Shuningdek, hadis ilmi faqatgina ma'lumot yodlash yoki ilm olish bilan cheklanmaydi. Bu ilm insonning xulqi, odobi va ruhiy tarbiyasiga ham ta'sir qiladi. Hadislarni o'rganish Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning odoblari va hayot tarziga ergashishni talab etadi. Shu sababli hadis ilmida ustozning shaxsiy tarbiyasi, namunasi va ma'naviy ta'siri ham katta o'ringa egallaydi.

Shu sababli Shayx Abdulloh Sirojuddin kabi buyuk ustozning tarbiyasida bo'lish Nuriddin Itrni faqat kitob o'qib yuradigan oddiy tadqiqotchi emas, balki haqiqiy, Allohga yaqin olim darajasiga olib chiqqan.

Undagi kamtarlik, shogirdlariga mehr bilan munosabatda bo'lish, xotirjamlik va haddan oshmagan, muvozanatli fikrlash kabi fazilatlar ham aynan shu muhit ta'sirida shakllangan.

Al-Azhar universitetida doktorlik (PhD) darajasini eng yuqori e'tiroflar bilan himoya qilganidan so'ng, olimning hayotida mutlaqo yangi bosqich - olingan fundamental bilimlarni jamiyatga tatbiq etish, ilmiy maktab yaratish va hadisshunoslik fanini akademik jihatdan qayta tizimlashtirish davri boshlandi. Uning ilmiy-pedagogik faoliyati shunchaki dars berish bilan cheklanmay, balki XX asrning ikkinchi yarmida islom olamida yuzaga kelgan mafkuraviy va metodologik inqirozlarga qarshi ilmiy qalqon vazifasini o'tadi.

Olimning mehnat faoliyati qayerdan va qanday boshlanganligi xususida turk tadqiqotchisi doktor Alaaddin Kiraz o'z tadqiqotida quyidagi xronologik ma'lumotni keltiradi: *"He immediately returned to Syria after getting his doctorate and temporarily taught at secondary schools before working as a Hadith instructor at the Islamic University of Medina from 1965 to 1967. He returned to Damascus in 1967 and began working at the Faculty of Sharia at Damascus University as a teacher and later a professor"*, ya'ni "U doktorlik darajasini olgach, darhol Suriyaga qaytdi va vaqtincha o'rta maktablarda dars berdi. So'ngra 1965-yildan 1967-yilgacha Madina islom universitetida hadis fani o'qituvchisi bo'lib ishladi. 1967-yilda Damashqqa qaytib, Damashq universiteti Shariat fakultetida avvaliga o'qituvchi, keyinchalik esa professor sifatida faoliyat boshladi"⁷.

⁷ Kiraz, Alaaddin. Nureddin 'Itr va "Menhecü'n-Nakd fi 'Ulümü'l-Ĥadis" Adli Eseri Üzerine Bir

Değerlendirme // Gifad: Gümüşhane Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. –



Olimning oliy ta'limdagi faoliyatini nega aynan Madina islom universitetidan boshlagani va oradan ikki yil o'tib yana Damashqqa qaytgani bejiz emas. Bu qaror ortida ham shaxsiy, ham tashqi omillar bor edi.

Avvalo, Madina shahri hadis ilmining eng muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Yosh Nuriddin Itr uchun bu yerda ishlash oddiy ish emas, balki Payg'ambar (s.a.v.) ning sunnati markazida turib, o'z ilmiy yo'lini yanada mustahkamlash imkoniyati edi. Bu muhit unga nafaqat ilmiy, balki ruhiy jihatdan ham kuch berdi. Shu bilan birga, o'sha paytda Suriyada vaziyat unchalik yaxshi emas edi. 1960-yillarda siyosiy o'zgarishlar kuchayib, diniy ta'limga bosim ortgan edi. Shu sababli u vaqtincha tinchroq va barqarorroq joy – Madinada faoliyat olib bordi.

Ammo 1967-yilda uning yana Damashqqa qaytishi juda muhim qaror bo'ldi. Bu uning o'z yurtiga bo'lgan sadoqati va jasoratini ko'rsatadi. Chunki u oson va xavfsiz hayotni tanlamadi, aksincha, qiyin sharoitda o'z mamlakatida ilmni saqlab qolishni ma'qul ko'rdi.

Ayniqsa, Damashq universitetining Shariat fakultetini ilmiy jihatdan tushib ketishdan himoya qilishga harakat qildi. Uning shu qat'iyati tufayli keyinchalik Damashqdagi hadis ilmi an'anasi saqlanib qolishga muvaffaq bo'ldi.

Olimning faoliyat ko'lamini faqat bitta universitet bilan cheklanib

qolmaganligini uning qizi doktor Roviya Nuriddin Itr arab tilidagi maqolasida shunday tasdiqlaydi: “وبالنسبة لتدريسه في الجامعات فقد كان جهده الأكبر منصباً على كلية الشريعة بجامعة دمشق... وزار جامعات كثيرة في العالم العربي والإسلامي؛ كجامعة الإمام الأوزاعي (في لبنان)، وجامعة (الكويت)، وجامعة ندوة العلماء (في الهند)، ya'ni

“ Universitetlardagi dars berish faoliyatiga keladigan bo'lsak, uning eng katta (asosiy) sa'y-harakati Damashq universiteti Shariat fakultetiga qaratilgan edi... Shuningdek, u arab va islom olamidagi ko'plab universitetlarga tashrif buyurdi; jumladan, Imom Avzoiy universiteti (Livan), Quvayt universiteti, Nadva al-Ulamo universiteti (Hindiston), Dubaydagi Islomiy va arab tadqiqotlari kolleji kabilarga”⁸.

Nuriddin Itr faqat Suriya yoki Misr bilan cheklanib qolmadi, balki boshqa mamlakatlarga ham chiqdi. Buning sababi shundaki, XX asr oxiriga kelib islom olamida hadis ilmini o'rganishda turli hududlarga xos alohida yo'llar paydo bo'lib, ular o'rtasida bog'lanish sustlashgan edi.

Masalan, Hindistondagi Devband maktabida hadis fiqh bilan bog'liq tarzda o'rganilgan bo'lsa, Misrdagi Azhar maktabida ko'proq tahlil va izohga urg'u berilgan. Bu farqlar asta-sekin o'zaro ajralishga olib kelgan. Shu vaziyatda Nuriddin Itr turli mamlakatlardagi universitetlarga borib, ma'ruzalar o'qidi va o'quv

Gümüşhane: Gümüşhane Üniversitesi, 2023. – № 12(23). – B. 314-315.

⁸ Itir, Râviye Nureddin. Bilâdüşşâm'ın Muhaddisi Prof. Dr. Nureddin Itir // مجلة كلية

العلوم الإسلامية في جامعة السلطان محمد الفاتح الوقفية (İslam Araştırmaları Dergisi). – İstanbul: Fatih Sultan Mehmet Vakıf Üniversitesi, 2021. – № 4. – B. 36-37.



dasturlarini joriy qildi. Shu orqali u turli ilmiy yo'nalishlar o'rtasida ko'priklarni vazifasini bajardi.

Bu faoliyat uning ilmiy uslubini faqat bir hududda emas, balki butun islom olamida tanitdi. U yaratgan yagona va xolis yondashuv turli mintaqalarda qo'llanila boshladi va umumiy ilmiy mezonga aylandi.

Uning ilmiy mehnati va yozgan asarlari haqida indoneziyalik tadqiqotchilar o'z izlanishlarida shunday yozishadi: *"Selama hidupnya, Nuruddin 'Itr telah menulis lebih dari 50 kitab, baik karyanya dalam bentuk karangan buku maupun mentahqiq dari kitab"*, ya'ni *"Nuriddin Itr o'z hayoti davomida kitob yozish (ta'rif) shaklida hamda asarlarni ilmiy tekshirib nashrga tayyorlash (tahqiq) shaklida jami 50 dan ortiq asarlar bitdi"*⁹.

Bundan ko'rinib turibdiki, Nuriddin Itr faqat yangi kitoblar yozish bilan cheklanib qolmadi. U umrining katta qismini eski, mumtoz asarlarni o'rganish, ularni to'g'rilash va tushuntirishga bag'ishladi. Buning sababi shundaki, bu jarayon uning uchun go'yo ilmiy tajriba maydoni bo'lib xizmat qilgan. U eski kitoblarning turli nusxalarini solishtirib, undagi nozik xatolarni aniqladi va qadimgi olimlarning qanday fikrlaganini chuqur tushunishga harakat qildi.

Shu orqali u faqat matnni o'rganib qolmadi, balki avvalgi olimlarning fikrlash uslubini ham o'zida qayta tikladi.

Agar u Ibn Hajar yoki Ibn Saloh kabi buyuk olimlarning asarlarini uzoq vaqt davomida chuqur o'rganmaganida, bugungi zamonga mos, tartibli va mukammal o'z asarlarini yozishi qiyin bo'lardi.

Demak, eski asarlarni o'rganish unga o'tmishdagi ilm bilan hozirgi zamon o'rtasida bog'lanish yaratish imkonini berdi.

Olimning ilmiy faoliyatining boshida u asosan eski kitoblarni o'rganish va turli joylarda ma'ruzalar qilish bilan shug'ullangan. Aynan shu tajribalar uning ilmiy qarashlari qanday shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Keyingi bosqichda esa u yanada muhim ishga kirishdi – hadis ilmining asosiy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish va uni tartibga solish bilan shug'ullandi. Ya'ni u bu sohada yangicha yondashuvni olib kirdi. Bu davrda uning oldida juda qiyin vazifa turardi: qadimiy ilmiy qoidalarni hozirgi zamon ilmiy tizimiga moslashtirish. U ana shu murakkab ishni muvaffaqiyatli bajara oldi.

Nuriddin Itrning fanga qo'shgan tizimli hissasi haqida xalqaro tadqiqotchilar jamoasi (I.R. bin Kurdian va b.) shunday ilmiy xulosa beradilar: *"The sixfold classification formulated by Nur al-Dīn 'Itr provides a systematic and methodological conceptual framework for comprehending the overall structure of ḥadīth scholarship. Through this schema, each subdiscipline can be situated proportionally according to its scope and object"*, ya'ni *"Nuriddin Itr*

⁹ Istiana, Ana., Sholihah, Ulfatus., Luthfianto, Muhammad. Kajian Tokoh Hadis: Nuruddin 'Itr // Mahabbah: Jurnal Ilmu Ushuluddin Dan

Pemikiran Islam. – Bangkalan: Sekolah Tinggi Ilmu Ushuluddin Darussalam, 2025. - № 1(2). – B. 149.



tomonidan ishlab chiqilgan olti qismli tasnif hadisshunoslikning umumiy tuzilishini anglash uchun tizimli va metodologik konseptual doirani taqdim etadi. Ushbu sxema orqali har bir qism (soha) o' zining qamrovi va obyektiga ko' ra mutanosib ravishda joylashtirilishi mumkin”¹⁰.

Shu o' rinda savol tug' iladi: nega aynan oltita bo' limga ajratish islom olamida katta yangilik sifatida qabul qilindi? Hadis ilmi tarixiga qaralsa, avvalgi olimlar bu fanni juda ko' p kichik qismlarga bo' lib o' rgangan. Masalan, Imom Hokim Naysaburiy 52 turga, Ibn Saloh esa 65 turga ajratgan. O' sha davr olimlari uchun bu tabiiy hol edi.

Lekin zamonaviy davr talabasi uchun bu qadar ko' p va tarqoq qoidalarni tushunish qiyin bo' lib qolgan. Ularni yagona tartibga solib o' rganish oson emas edi. Nuriddin Itr shu muammoni to' g' ri tushundi. U fanni qisqartirmasdan, balki uni tartibga solib, yirik guruhlariga ajratish kerakligini anglab yetdi. Shu sababli u butun hadis ilmini 6 ta katta bo' limga birlashtirdi:

- roviylar (hadis rivoyat qiluvchilar) ilmi;
- rivoyat qilish jarayoni;
- sanad (rivoyat zanjiri) ilmi;
- matn (hadis matni) ilmi;
- hadisni qabul qilish yoki rad etish qoidalari;
- boshqa bog' liq ilmlar.

¹⁰ bin Kurdian, I. R., Pramesta, B., et al. The Epistemological Shift in Hadith Science: From al-Hakim's Systematic Classification to Nur al-Din 'Itr's Methodological Framework // Diroyah: Jurnal Studi Ilmu Hadis. – Bandung: UIN Sunan Gunung Djati, 2026. - № 10(2). – B. 192.

Bu usul talabaga fanni yuqoridan turib, umumiy tartibda ko' rish imkonini berdi. Ya' ni avval umumiy tushuncha olinadi, keyin asta-sekin tafsilotlarga o' tiladi. Natijada, “hadis ilmi tartibsiz va chalkash” degan tanqidlarga aniq va mantiqli javob berildi.

Olimning amaliy hissasi faqatgina nazariya bilan cheklanmadi. Uning Damashq universitetidagi pedagogik faoliyati va asarlarining amaliyotga tatbiqi xususida arab manbalarida muhim dalil keltiriladi: “*درّس مختارات منه في جامعة دمشق، في السنة الدراسية الثانية والثالثة والرابعة، وطُبعت شروح تلك المختارات في كتب ..جامعية: دراسات تطبيقية في الحديث النبوي*”, ya' ni “U Damashq universitetining ikkinchi, uchinchi va to' rtinchi o' quv yillarida undan (hadislardan) saylanmalarni dars qilib o' tdi va ushbu saylanmalarning sharhlari universitet darsliklari shaklida chop etildi: Payg' ambar (s.a.v.) hadislarida amaliy tadqiqotlar...”¹¹.

Vaqt o' tishi bilan, ayniqsa XX asr oxirlariga kelib, ko' plab islom universitetlarida hadis ilmi asosan yodlash va qoidalarni takrorlash darajasida qolib ketgan edi. Talabalar hadislarini o' rganar, biroq ularning bugungi hayotdagi amaliy foydasi va jamiyat bilan bog' liqligini yetarli darajada anglay olmas edi.

Nuriddin Itr ushbu muammoni chuqur his qilgan holda hadislarini faqat

¹¹ Qasimov, A. H. Manzilat Madar al-Isnad: Itr va uning darsliklari // Majallat Kulliyat al-Ulum al-Islamiyya fi Jami'at al-Sultan Muhammad al-Fatih al-Waqfiyya. – Istanbul: FSMVU, 2021. - № 45. – B. 589 (1-bet).



nazariy jihatdan o'rganish bilan cheklanib qolmadi. U hadislarini amaliy jihatdan tahlil qilib, ulardan huquqiy, axloqiy va ijtimoiy xulosalar chiqarish yo'llarini tushuntirib berdi. Dars jarayonida hadislarining inson hayoti va jamiyatdagi o'rnini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratdi.

Natijada hadis ilmi faqat masjid yoki diniy marosimlar bilan bog'liq fan sifatida emas, balki jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liq, insonlarga amaliy foyda beradigan muhim ilm sifatida qayta tiklandi.

Ilmiy maktab yaratish va ilmiy vorisilik masalasida doktor A. Alkasmalhadad kabi tadqiqotchilar o'zining doktorlik ishiga aynan Nuriddin Itr rahbarlik qilganini yozib, shunday xotirlaydi: “تشرفت في الأعوام (١٩٩٩-٢٠٠٥م) أن كان شيخنا رحمه الله هو المشرف على أطروحتي العلمية لنيل درجة الماجستير... ثم كان مشرفاً على أطروحة الدكتوراه (٢٠٠٧-٢٠١١م)... فلم يمرني ، شيخنا رحمه هلا بتغيير شيء من تلك النتائج ” , ya'ni “1999-2005 yillarda ustozimiz (Alloh u kishini rahmat qilsin) mening magistrlik dissertatsiyamga ilmiy rahbar bo'lganliklaridan sharaflandim... So'ngra u kishi 2007-2011 yillarda mening doktorlik dissertatsiyamga ham rahbarlik qildilar... Ustozim meni u yerdagi (kitobdagi) natijalardan birortasini (majburlab, sun'iy ravishda) o'zgartirishga buyurmadilar”¹².

Nuriddin Itrning magistr va doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilishi uning ilmiy faoliyatidagi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Ko'plab

yirik olimlar asosan kitob yozish va ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanib, yangi avlod olimlarini tayyorlashga yetarli darajada e'tibor bermaydi. Islom an'anasida esa ilm faqat kitoblar orqali emas, balki ustozdan shogirdga o'tib yashab keladi. Ayniqsa xolis, adolatli va ilmiy asoslangan fikrlash uslubini yosh tadqiqotchilarga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nuriddin Itr aynan shu masalaga alohida e'tibor qaratgan. U shogirdlarining mustaqil fikr yuritishiga imkon bergan va ilmiy qarashlarini erkin bayon qilishiga to'sqinlik qilmagan. Hatto ularning fikrlari mashhur qarashlardan farq qilgan hollarda ham, agar bu fikrlar ilmiy dalillarga tayangan bo'lsa, ularni qabul qilgan va qo'llab-quvvatlagan.

Bu uning qat'iy buyruq beradigan ustoz emas, balki erkin fikrga imkon beradigan ilmiy maktab yaratganini ko'rsatadi.

Aynan shu yondashuv tufayli bugungi kunda dunyoning turli joylarida

- Indoneziyadan tortib Marokashgacha
- uning shogirdlari faoliyat yuritmoqda.

Ular uning ilmiy uslubini davom ettirib, hadis ilmini himoya qilmoqda va tanqidlarga ilmiy asosda javob bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Nuriddin Itr hayoti davomida turli jabhalarda, xususan, ilmiy, ijtimoiy va ta'lim sohalarida faoliyat olib bordi. Hamma sohada o'zining yetakchilik va yuksak

¹² Alkasmalhadad, Abdulkareem. Itr Nuriddin va uning “Manhaj al-Naqd” asaridagi uslublari // Majallat Kulliyat al-Ulum al-Islamiyya. –

Istanbul: FSMVU, 2021. - № 45. – B. 592 (4-bet).



olimlik qobiliyatini namoyish etdi. Ilm olish davrida, xoh Halabdagi shariat maktabi bo'lsin, xoh Misrdagi Azhar universiteti bo'lsin, doimo eng a'lochi va peshqadam talaba bo'ldi. Ustozlari e'tirofiga sazovor bo'ldi. O'qituvchilik davri ham nihoyatda samarali bo'ldi. Damashq va Madina kabi yirik ta'lim dargohlarida asosiy va almashtirib bo'lmas darajadagi ustoz bo'ldi. Ilm-fan va davlat maydonida insonlar tinch-xotirjam va sof e'tiqodda hayot kechirishi, shuningdek, islom ummati asossiz shubhalardan yiroq bo'lishi uchun ko'p mehnat qildi.

Nuriddin Itrning teran fikri ko'p xalqaro olimlarning e'tirofiga sazovor bo'lgan. U hadis, tafsir va fiqhga oid masalalar borasida doimo mo'tadillik (vasatiylik) bilan yo'l tutgan. Roviylar va rivoyatlarni baholash, hadislarni qabul

qilish yoki rad etish kabi murakkab masalalarda shoshilib hukm chiqarishdan ehtiyot bo'lgan. Diniy matnlarga yuzaki yondashishdan ko'ra, ularning asl mohiyatini o'rganib, matn va sanad o'rtasidagi uzviylikni saqlash kerakligini ta'kidlagan.

Xususan, "Manhaj an-naqd fi ulum al-hadis" asarida ham chigal masalalarga, ayrim g'arb sharqshunoslarining asossiz shubha va xurujlariga chiroyli va qat'iy ilmiy yechim topishga harakat qildi. Shu omillarni inobatga olgan holda Nuriddin Itrning hayoti va ilmiy faoliyatini chuqur o'rganib chiqishga ehtiyoj tug'iladi. Uning asarlari zamonaviy hadisshunoslik metodologiyasini o'rganish, mumtoz an'analarni tiklash va bugungi kundagi ziddiyatli bahs-munozaralarga yechim bo'lishda nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi.

References:

1. Nuriddin Itr. *Manhaj al-naqd fi ulum al-hadis*. – Damashq: Dor al-fikr, 1997. – 491 b.
2. Nuriddin Itr. *I'lam al-anom sharh Bulug' al-marom*. – Damashq: Dor al-farfiy, 1996. – J. 1.
3. Roviya Nuriddin Itr. *Biladush-Shomning muhaddisi Prof. Dr. Nuriddin Itr*. – Istanbul: Fatih Sultan Mehmet Vakif Universiteti, 2021. – 35 b.
4. Alaaddin Kiraz. Nuriddin Itr va "Manhaju-n-naqd fi ulum al-hadis" asari ustiga bir baholash. – Gumushxona: Gifad jurnali, 2023. – 329 b.
5. Ana Istiana, Ulfatus Sholihah. Hadis olimlari tadqiqoti: Nuriddin Itr. – Bangkalan: Mahabbah jurnali, 2025. – 150 b.
6. I.R. Kurdian, B. Pramesta. Hadis ilmidagi epistemologik burilish: Al-Hokimdan to Nuriddin Itr metodologiyasigacha. – Bandung: Diroyah, 2026. – 192 b.
7. Muhammad Mustafo A'zamiy. *Manhaj an-naqd inda al-muhaddisin nash'atuh va tatovvuruh*. – Riyoz: Maktaba al-kavsar, 1990. – 234 b.
8. Ilham Ramadan Siregar. *Nuruddin 'Itr's Hadith Manhaj: A Significant Contribution to The Development of Hadith Studies*. – Jurnal Studi Hadis Nusantara, 2024. – 85 b.



9. Jurakulov S. Nuriddin Itrning “ Manhaju-n-naqd fi ulum al-hadis ” asari hadisshunoslikdagi muhim manba (Magistrlik dissertatsiyasi). – Toshkent: O ’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, 2026. – 83 b.
10. Sayyid Abdulmajid G’ovriy. Mavsua ulum al-hadis va fununih. – J;2. – Damashq: Dor Ibn Kasir, 2007.